

“NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI” AJNING MANFAATDOR TOMONLAR BILAN O‘ZARO HAMKORLIK BO‘YICHA SIYOSATI

1. UMUMIY QOIDALAR

Ushbu Manfaaddor tomonlar bilan o‘zaro hamkorlik qilish siyosati (keyingi o‘rinlarda - Siyosat) “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJning (keyingi o‘rinlarda - “NKMK” AJ, Kompaniya) ichki hujjati bo‘lib, tashqi va ichki manfaaddor tomonlar bilan konstruktiv hamkorlik qilishning asosiy yondashuvlari, tamoyillari va mexanizmlarini belgilaydi.

Mazkur Siyosat “NKMK” AJning manfaaddor tomonlar bilan o‘zaro munosabatlar bo‘yicha majburiyatlarini aks ettiradi, “NKMK” AJ xodimlarining Odob-axloq kodeksi, Kontragentlarning biznes-ahloqi kodeksi, Inson huquqlari bo‘yicha siyosat, Manfaaddor tomonlarga ma‘lumotlarni oshkor qilish siyosati va Kompaniyaning boshqa siyosatlarida bayon etilgan tamoyillar bilan birgalikda “NKMK” AJning manfaaddor tomonlari bilan o‘zaro munosabatlarning yagona tamoyillarini shakllantiradi.

2. MANFAATDOR TOMONLAR BILAN HAMKORLIK BO‘YICHA STRATEGIK MAQSADLAR

Kompaniyaning maqsadi - samarali va shaffof o‘zaro aloqalarni ta‘minlash, ishonch darajasini oshirish va “NKMK” AJning barcha manfaaddor tomonlari, jumladan xodimlar, hamjamiyat, hamkorlar va boshqa manfaaddor tomonlar uchun uzoq muddatli qiymat yaratishdir.

Kompaniya o‘z oldiga quyidagi ustuvor vazifalarni qo‘yadi:

Manfaaddor tomonlar bilan konstruktiv, ochiq va samarali muloqot tizimini shakllantirish.

Kompaniyaning ishonchini oshirish va ishchanlik obro‘cini mustahkamlash.

Boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida manfaaddor tomonlarning manfaatlarini aniqlash va hisobga olish.

Xavflarni boshqarish tizimini takomillashtirish.

Kompaniya faoliyatining shaffofligi va hisobdorligini ta‘minlash.

3. QO‘LLANISH SOHASI VA MANFAATDOR TOMONLARNI ANIQLASH

3.1. Qo‘llanish sohasi

Siyosat qoidalari Kompaniya tomonidan amalga oshiriladigan barcha biznes jarayonlari va faoliyat turlariga, shuningdek, loyihalarning hayotiylik davrining barcha bosqichlariga nisbatan qo‘llaniladi. Siyosat qoidalari barcha manfaaddor tomonlarga nisbatan tatbiq etiladi.

3.2. Manfaaddor tomonlarni aniqlash

“NKMK” AJ tashkilotning faoliyati, maqsadlari va barqarorligiga ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan har qanday guruhlar va/yoki shaxslar manfaaddor tomonlar ekanligini tan oladi.

Ushbu yondashuv shuni ta‘kidlaydiki, manfaaddor tomonlar nafaqat Kompaniya bilan rasmiy munosabatlarga ega bo‘lgan shaxslar va tashkilotlar (masalan, xodimlar yoki aksiyadorlar), balki bilvosita ta‘sir qilishi mumkin bo‘lganlar - mahalliy aholi, NNTlar, davlat organlari, yetkazib beruvchilar, iste‘molchilar va hatto kelajak avlodlardir. Kompaniyaning manfaaddor tomonlari ham Kompaniya faoliyatining ichki kontekstida, ham institutlararo o‘zaro aloqalar, bozor va sheriklik munosabatlari doirasida tashqi muhitda baholanishi kerak.

Ushbu majburiyatlar asosida Kompaniya manfaaddor tomonlarning quyidagi guruhlarini ajratadi, lekin ular bilan cheklanmaydi:

Kompaniya xodimlari va Kasaba uyushmasi kengashi - Kompaniya xodimlari, xodimlar vakillari, kasaba uyushmasi tashkilotlari.

Aksiyadorlar - mulkdor.

Kuzatuv kengashi - yuqori boshqaruv organi.

Investorlar va moliyaviy institutlar - strategik hamkorlar, banklar, kredit tashkilotlari, fond bozorlari.

Davlat organlari va mahalliy hokimiyat organlari - nazorat qiluvchi, tartibga soluvchi davlat va mahalliy hokimiyat organlari.

Mahalliy aholi - Kompaniya faoliyat yuritadigan hududlar aholisi.

Yetkazib beruvchilar, pudratchilar va hamkorlar - materiallar, ishlar, xizmatlar va texnologiyalarni yetkazib beruvchi tashkilotlar, kichik va qo'lbola qazib oluvchilar.

Mahsulot iste'molchilari - Kompaniya mahsulotlari xaridorlari, Markaziy bank, sanoat korxonalari.

Jamoat tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari - ekologik, ijtimoiy, professional birlashmalar, jurnalistlar, ommaviy axborot vositalari vakillari.

Ilmiy, ta'lim va ekspert muassasalari - oliy o'quv yurtlari, tadqiqot markazlari, ta'lim tashkilotlari.

Xalqaro tashkilotlar va donorlar - rivojlanish agentliklari, jamg'armalar, xorijiy hamkorlar.

4. NORMATIV-HUQUQIY BAZA

Manfaatdor tomonlar bilan o'zaro hamkorlik qilish bo'yicha yondashuvda "NKMK" AJ quyidagi tamoyillarga amal qiladi:

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi;

BMTning Inson huquqlari umumiy deklaratsiyasi;

BMT tasdiqlagan inson huquqlari sohasida tadbirkorlik faoliyati bo'yicha yo'llanma prinsiplari;

Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OECD)ning etik biznes olib borish bo'yicha yo'llanma prinsiplari;

Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC)ning faoliyat standartlari;

ISO 26000:2012 «Korporativ ijtimoiy mas'uliyat bo'yicha standart»;

AA1000SES xalqaro standarti — manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik;

BMT Global kelishuvi (UNGC) prinsiplari;

Xalqaro kengashning (ICMM) mas'uliyatli konchilik sohasi prinsiplari;

Oltin qazib olishda mas'uliyatli yondashuv prinsiplari (RGMP);

Kompaniyaning ichki normativ hujjatlari.

5. ASOSIY TAMOIYILLAR

5.1. Axborotning shaffofligi va ochiqligi

Jamiyat barcha manfaatdor tomonlar uchun o'z faoliyati to'g'risidagi axborotning ochiqligi, to'liqligi va ishonchliligini ta'minlash majburiyatini oladi, tijorat yoki xizmat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar bundan mustasno.

Shaffoflik quyidagi ma'lumotlarning muntazam va o'z vaqtida oshkor etilishini nazarda tutadi:

faoliyatning moliyaviy-iqtisodiy natijalari;

jiddiy ekologik ta'sirlar va ularni kamaytirish choralari;

Kompaniya tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy dasturlar va loyihalar;

mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi normalariga rioya qilish;

davlat organlari va mahalliy hamjamiyatlar bilan hamkorlik qilish.

Axborotning ochiqligi quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

korporativ veb-saytda barqaror rivojlanish bo'yicha korporativ hisobotlarni muntazam taqdim etish;

ishlab chiqarish, moliyaviy, ekologik va ijtimoiy faoliyatning asosiy natijalari va ko'rsatkichlari, shu jumladan mehnatni muhofaza qilish, ekologiya va mahalliy aholining farovonligi to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish;

press-relizlarni tashkil etish va OAVda ma'lumotlarni e'lon qilish;

xodimlar, kasaba uyushmalari, aksiyadorlar, jamoatchilik va mahalliy aholi vakillari bilan uchrashuvlar o'tkazish;

qo'shma loyihalar va ish natijalarini muhokama qilish uchun jamoatchilik va davlat organlari bilan uchrashuvlar o'tkazish.

Kompaniya xodimlar, hamkorlar, investorlar va mahalliy aholi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni oshkor qiladi va savollar yoki shikoyatlar yuzaga kelganda belgilangan tartibda tushuntirishlar beradi. Buning uchun Kompaniya korporativ hisobotni tayyorlash va ma'lumotlarni oshkor qilish uchun muhim mavzularni davriy baholashni amalga oshiradi.

5.2. O'zaro hurmat va ishonch

Kompaniya manfaatdor tomonlar bilan o'zaro munosabatlarni ularning huquqlari, manfaatlari, qadriyatlari, madaniy va ijtimoiy xususiyatlarini hurmat qilish asosida quradi.

O'zaro hurmat quyidagilarni anglatadi:

har bir manfaatdor tomonlar guruhining ahamiyatini tan olish;

Asosiy boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ularning fikrlarini hisobga olish;

manfaatdor tomonlarga ularning ko'lamini, kelib chiqishi, mulkchilik shakllari va tashkiliy-huquqiy maqomidan qat'i nazar, teng munosabatda bo'lish;

kamsitish, noxolislik va hamkorlikning teng bo'lmagan shartlari namoyon bo'lishiga yo'l qo'ymaslik.

Ishonch quyidagilar orqali shakllanadi:

o'z zimmasiga olgan barcha majburiyatlarni belgilangan muddatlarda bajarish;

xodimlar, hamkorlar, davlat organlari va jamiyat bilan o'zaro munosabatlarda "so'z - ishga teng" tamoyiliga rioya qilish;

nizoli yoki ziddiyatli vaziyatlar yuzaga kelganda ochiq va o'z vaqtida muloqot qilish;

murojaat va shikoyatlarning adolatli va teng ko'rib chiqilishi.

Kompaniya halollik, ochiqlik va o'zaro hurmatga asoslangan qulay hamkorlik muhitini yaratish majburiyatini oladi, bu esa ishonch darajasini oshirish va uzoq muddatli hamkorlik uchun asos yaratishga imkon beradi.

Ishonchni saqlab qolish manfaatdor tomonlarning fikrlarini muntazam ravishda kuzatib borish, jamoatchilik idrokini mustaqil o'rganish, shuningdek, doimiy qayta aloqa mexanizmlari orqali ta'minlanadi.

5.3. Javobgarlik va hisobdorlik

Kompaniya o'zining iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik sohalardagi faoliyati oqibatlarini uchun barcha manfaatdor tomonlar oldida javobgarligini tan oladi.

Javobgarlik quyidagilarni anglatadi:

shartnomalar, bitimlar va korporativ hujjatlar bilan mustahkamlangan majburiyatlarni bajarish;

O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, xalqaro normalar va tarmoq standartlari talablariga rioya qilish;

atrof-muhitga, xodimlar va mavjud hududlar aholisining sog'lig'iga salbiy ta'sirni kamaytirish va oldini olish;

korruptsiya amaliyotlariga, xizmat mavqeini suiiste'mol qilishga va shaffof bo'lmagan o'zaro hamkorlik sxemalariga yo'l qo'ymaslik.

Hisobdorlikni ta'minlash uchun Kompaniyada quyidagi tartib-taomillar amal qiladi va qo'llaniladi:

ichki nazorat (ichki auditlar va siyosatlariga rioya qilish tekshiruvlari, ijro intizomi nazorati);

tashqi nazorat (mustaqil auditorlik va ekspert baholari, davlat regulyatorlari va nazorat organlari tomonidan nazorat tadbirlari);

korporativ hisobotlar (yillik hisobotlar, korporativ resurslardagi nashrlar, press-revizlar).

Kompaniya manfaatdor tomonlarning murojaatlariga o'z vaqtida javob berish, shikoyatlar bo'yicha tekshiruvlar o'tkazish va arizachilarni ko'rilgan choralar to'g'risida xabardor qilish uchun javobgardir.

Hisobdorlik tamoyili barcha darajadagi rahbarlarning o'z bo'linmalari va jamoalari faoliyati natijalari uchun shaxsiy javobgarligi orqali amalga oshiriladi.

5.4. Muloqot va hamkorlik

Kompaniya ochiq muloqot va hamkorlikni manfaatdor tomonlar bilan samarali hamkorlikning asosiy vositasi sifatida ko'radi.

Muloqot quyidagilarni o'z ichiga oladi:

barcha darajadagi manfaatdor tomonlar bilan muntazam va ikki tomonlama muloqot;

muloqotning turli kanallaridan foydalanish: shaxsiy uchrashuvlar, jamoatchilik eshituvlari, "ishonch telefonlari", elektron pochta, bot-yordamchi (onlayn maslahatchi), virtual qabulxona va kompaniya veb-saytidagi rasmiy nashrlar va press-reizlar;

Kompaniyaning strategiyalari, dasturlari va loyihalarini ishlab chiqishda fikr va takliflarni hisobga olish;

yuzaga keladigan savollar, murojaatlar va shikoyatlarga tezkor javob berish.

Hamkorlik quyidagilarda ifodalanadi:

ishonch, o'zaro manfaatdorlik va tomonlar manfaatlarini hurmat qilishga asoslangan uzoq muddatli sheriklik munosabatlarini rivojlantirish;

ishtirok etish hududlarini ekologiya, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va barqaror rivojlantirish sohasidagi loyihalarni birgalikda amalga oshirish;

tashabbuslarni ishlab chiqish va amalga oshirishga tashqi ekspertlar, ilmiy va ta'lim tashkilotlari, jamoat birlashmalarini jalb qilish;

Hamkorlik dasturlari va ijtimoiy loyihalar orqali mahalliy hamjamiyatlar, hokimiyat organlari va tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash.

Muloqot va hamkorlik sifatini oshirish uchun Kompaniya quyidagilarni amalga oshiradi:

murojaatlarni qabul qilish mexanizmlari va fikr-mulohaza tizimi, jumladan, ariza beruvchilar bilan majburiy fikr-mulohaza almashish orqali taklif va shikoyatlarni qabul qilish va ko'rib chiqish;

qoniqish so'rovnomasi va manfaatdor tomonlar ishtiroki tadqiqotiga asoslangan **o'zaro hamkorlik samaradorligini baholash**.

jamoatchilik ishtiroki mexanizmlari - jamoatchilik masalalari bo'yicha ishchi guruhlar va kengashlar;

Kompaniya tizimli muloqot va hamkorlikni ta'minlash majburiyatini oladi va tomonlarning manfaatlarini hisobga oladigan va uzoq muddatli istiqbolda barqaror rivojlanishga hissa qo'shadigan yechimlarni topishga qaratilgan.

5.5. Uzoq muddatli rivojlanishga yo'naltirilganlik

Kompaniya barqaror va uzoq muddatli rivojlanishni o'z faoliyati va manfaatdor tomonlar bilan o'zaro hamkorlikning asosi sifatida ko'radi.

Manfaatdor tomonlar bilan o'zaro hamkorlik uzoq muddatli istiqbolni hisobga olgan holda quriladi va quyidagilarga yo'naltiriladi:

strategik vazifalarni qisqa muddatli foydadan ustun qo'yish;

boshqaruv qarorlarini qabul qilishda kelajak avlod manfaatlarini hisobga olish;

mavjud hududlarni barqaror rivojlantirish va mahalliy hamjamiyatlarning hayot sifatini oshirish;

ekologik xavflarni minimallashtirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish;

innovatsiyalar, ilmiy tadqiqotlar va ilg'or texnologiyalarni joriy etishni qo'llab-quvvatlash;

ishlab chiqarish va ijtimoiy muhitda xavfsizlik va xavf-xatarning oldini olish madaniyatini shakllantirish.

ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, jarayonlarning energiya samaradorligi va ekologik tozaligini oshirishga investitsiyalar;

inson kapitalini rivojlantirish - xodimlarning kasbiy salohiyati, ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi.

Uzoq muddatli rivojlanish prinsipini amalga oshirish uchun:

ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy ustuvorliklarni o'z ichiga olgan **strategik rejalashtirish tizimi; xalqaro standartlarga mos keladigan korporativ barqaror rivojlanish dasturlari** (jumladan, ESG tamoyillari va BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari);

Rivojlanishni kuzatish va kelgusi rivojlanish uchun harakatlarni tuzatish imkonini beruvchi **monitoring va baholash mexanizmlari.**

5.6. Manfaaddor tomonlar bilan o'zaro hamkorlik mexanizmlari

Axborot o'zaro ta'siri:

Yillik va ESG hisobotlarini e'lon qilish;
Press-relizlar, rasmiy bayonotlar;
Korporativ veb-sayt va ijtimoiy tarmoqlar;
xodimlar va aholi uchun axborot byulletenlari;

Muloqot formatlari:

Loyihalar bo'yicha jamoatchilik eshituvlari;
Davra suhbatlari va konferensiyalarda ishtirok etish va tashkil etish;
Qo'shma ishchi guruhlar;
Rahbariyatning mahalliy aholi vakillari bilan muntazam uchrashuvlari;

Qayta aloqa:

Ishonch telefoni va call-markaz;
Murojaat va shikoyatlarni qabul qilish mexanizmi;
Elektron kanallar (elektron pochta, bot-yordamchi, virtual qabulxona);
Korxonalarda takliflar uchun qutilar;
Murojaatlar xizmati xodimlariga og'zaki va yozma murojaatlar hamda murojaatlarni pochta orqali yuborish;

Ishlab chiqarish bo'linmalari rahbarlarining qabul kunlari;
Jamiyat boshqaruvi raisi va a'zolari tomonidan fuqarolarni shaxsan qabul qilish;

Ijtimoiy dasturlar va tashabbuslar

Mavjud hududlarni rivojlantirish dasturlari;
Xayriya va homiylik;
Ijtimoiy ko'ngillilik.

6. VAZIFALARI VA AMALGA OSHIRISH MEXANIZMI

6.1. O'zaro ta'sir bosqichlari

Kompaniya manfaaddor tomonlar bilan o'zaro hamkorlikni quyidagi bosqichlar asosida yo'lga qo'yadi:

Aniqlash - asosiy manfaaddor tomonlar guruhlarini aniqlash.

Qiziqishlarni tahlil qilish - kutilmalar, ehtiyojlar va ehtimoliy xatarlarni aniqlash.

Hamkorlikni rejalashtirish- hamkorlik strategiyasi va dasturlarini shakllantirish.

O'zaro hamkorlik va xavflarni boshqarish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish - tadbirlar, muloqotlar va qo'shma loyihalarni tashkil etish, xavflarni boshqarish choralari joriy etish.

Jalb qilish - manfaaddor tomonlarning rejalarni ishlab chiqish, qarorlar qabul qilish va Kompaniyaning manfaaddor tomonlar bilan hamkorlik qilish bo'yicha strategik maqsadlariga erishishda ishtirok etishi.

Monitoring - manfaaddor tomonlarning Kompaniyaga bo'lgan qoniqish va ishonch darajasini kuzatish.

Hamkorlik rejalarini tuzatish - hamkorlik strategiyasiga o'zgartirish kiritish.

6.2. O'zaro hamkorlikning asosiy tamoyillari

Manfaaddor tomonlarni jalb qilish: "NKMK" AJ kompaniya faoliyati bilan bog'liq barcha muhim guruhlar, jumladan ichki va tashqi manfaaddor tomonlarning manfaatlarini hisobga olishga intiladi.

Hamkorlik doirasidagi muhim mavzularga ustuvorlik berish: Kompaniya hamkorlik mavzularini ularning biznes va manfaatdor tomonlar uchun ahamiyatidan kelib chiqqan holda belgilaydi va ustuvorlik beradi. Bunga ekologik, ijtimoiy, mehnat, iqtisodiy va boshqa jihatlar kiradi.

Javob berish: “NKMK” AJ manfaatdor tomonlarning so‘rovlari, kutilmalari va xavotirlariga o‘z vaqtida va munosib javob berish, asosli javoblar berish va tuzatish choralari ko‘rish majburiyatini oladi.

Xavflarni boshqarish: Kompaniya ta’sir va xavflarni tahlil qilish uchun manfaatdor tomonlardan olingan so‘rovlar, shikoyatlar va takliflarni baholashni o‘z zimmasiga oladi, jumladan:

ijtimoiy xavflar - noroziliklar, ishonchning pasayishi, shikoyatlarning ko‘payishi;

ekologik xavflar - jamoalar va jamoat tashkilotlarining da’volari;

obro‘ xavflari - ommaviy axborot vositalarida salbiy chiqishlar, manfaatdor tomonlarning ishonchini yo‘qotish;

investitsion xavflar - hamkorlarning rad etishi yoki jozibadorlikning pasayishi.

Xatarlarni kamaytirish uchun quyidagilar nazarda tutiladi: ogohlantirish, inqirozli aloqalar, murojaatlarga tezkor javob berish tizimini joriy etish.

Samaradorlikni baholash: Kompaniya ushbu Siyosat qoidalarini amalga oshirish samaradorligini baholaydi va baholash natijalari (murojaatlar soni va ularni ko‘rib chiqish sifati, Kompaniyaning qo‘shma loyihalar va dasturlardagi ishtiroki, barqaror rivojlanish indeksleri va reytinglari, nizolar va shikoyatlar sonining kamayishi) asosida hamkorlik rejalariga tuzatishlar kiritadi.

7. JAVOBGARLIK

“NKMK” AJ rahbariyati ushbu Siyosat qoidalarini amalga oshirish va ularga rioya qilish uchun mas’uldir, shuningdek, inson huquqlarini himoya qilish va hurmat qilish sohasidagi maqsadlarga erishish uchun zarur resurslarni taqdim etadi. Kompaniya rahbariyati manfaatdor tomonlar bilan tizimli hamkorlikni tashkil etish uchun mas’uldir. Barcha ishlab chiqarish bo‘linmalari o‘z faoliyati doirasida manfaatdor tomonlarning manfaatlarini hisobga olishlari shart.

Mas’ul shaxslar ushbu siyosatga rioya etilishini muntazam ravishda kuzatib boradi hamda yuqori rahbariyat va manfaatdor tomonlarga hisobot beradi, shuningdek, ushbu Siyosat va hamkorlik mexanizmlarining samaradorligini muntazam ravishda baholab boradi.

Ushbu siyosat qoidalariga rioya qilish bo‘yicha hisobotlar muntazam korporativ hisobotlarga kiritilgan.

Jamiyatning manfaatdor tomonlari bilan o‘zaro munosabatlar bo‘yicha javobgarlik quyidagicha taqsimlanadi:

Manfaatdor tomon	Manfaatdor tomon bilan o‘zaro aloqa va qayta aloqani ta’minlaydigan bo‘linma
Kompaniya xodimlari va Kasaba uyushmasi kengashi - Kompaniya xodimlari, kasaba uyushmalari tashkilotlari.	Boshqaruv raisi va boshqaruv a’zolari Ishlab chiqarish bo‘linmalari direktorlari Kadrlar boshqarmasi Mehnat muhofazasi, sanoat xavfsizligi va ekologiya boshqarmasi (ESG) Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qabul qilishni nazorat qilish va muvofiqlashtirish bo‘limi Ijtimoiy korporativ mas’uliyat bo‘limi
Aksiyador - mulkdor.	Boshqaruv raisi va boshqaruv a’zolari Korporativ maslahatchi Strategik rivojlanish va istiqbolli loyihalar bo‘limi
Kuzatuv kengashi – yuqori boshqaruv organi hisoblanadi.	Boshqaruv raisi va boshqaruv a’zolari Korporativ maslahatchi

Manfaatdor tomon	Manfaatdor tomon bilan o'zaro aloqa va qayta aloqani ta'minlaydigan bo'linma
	Strategik rivojlanish va istiqbolli loyihalar bo'limi
Investorlar va moliyaviy institutlar - strategik hamkorlar, banklar, kredit tashkilotlari, fond bozorlari.	Korporativ moliya bo'limi Davlat organlari va investorlar bilan aloqalarni rivojlantirish bo'yicha mutaxassis (IR) Barqaror rivojlanish va atrof-muhit (ESG) bo'limi
Davlat organlari va mahalliy hokimiyat organlari - nazorat qiluvchi, tartibga soluvchi va munitsipal tuzilmalar.	Boshqaruv raisi va boshqaruv a'zolari Yuridik bo'lim Jamoatchilik bilan aloqalar departamenti Tegishli bo'limlar va departamentlar o'z vakolatlari va qonun hujjatlari talablarini bajarish doirasida
Mahalliy aholi - Kompaniya faoliyat ko'rsatayotgan hududlar aholisi.	Boshqaruv raisi va boshqaruv a'zolari Ishlab chiqarish bo'linmalari direktorlari Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha direktor Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qabul qilishni nazorat qilish va muvofiqlashtirish bo'limi Ijtimoiy korporativ mas'uliyat bo'limi Tegishli bo'limlar va departamentlar o'z vakolatlari va qonun hujjatlari talablarini bajarish doirasida
Yetkazib beruvchilar, pudratchilar va hamkorlar - materiallar, xizmatlar va texnologiyalarni yetkazib beruvchi tashkilotlar, kichik va qo'lbola qazib oluvchilar.	Xaridlarni tashkil etish va metodologiyasini takomillashtirish bosh boshqarmasi
Mahsulot iste'molchilari - Kompaniya mahsulotlarini sotib oluvchi korxonalar, sanoat korxonalari, qayta ishlovchilar, eksport bozorlari.	Sotish bo'limi
Jamoat tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari - ekologik, ijtimoiy, professional birlashmalar, jurnalistlar, ommaviy axborot vositalari vakillari.	Jamoatchilik bilan aloqalar departamenti Davlat organlari va investorlar bilan aloqalarni rivojlantirish bo'yicha mutaxassis (IR)
Ilmiy, ta'lim va ekspert muassasalari - oliy o'quv yurtlari, tadqiqot markazlari, ta'lim tashkilotlari.	Innovatsion rivojlanish departamenti Xodimlarni o'qitish bo'limi
Xalqaro tashkilotlar va donorlar - rivojlanish agentliklari, jamg'armalar, xorijiy hamkorlar.	Xalqaro hamkorlik va protokol bo'limi Davlat organlari va investorlar bilan aloqalarni rivojlantirish bo'yicha mutaxassis (IR)

8. YAKUNIY QOIDALAR

Mazkur Siyosat muntazam ravishda (uch yilda kamida bir marta) qayta ko'rib chiqilishi lozim, shuningdek quyidagi hollarda:

amaldagi qonunchilik o'zgargani sababli;

Kompaniyaning operatsion faoliyatida sezilarli o'zgarishlar bo'lganda;

eng yaxshi amaliyotlarga mos kelish maqsadida.

Ushbu Siyosat “NKMK” AJ Boshqaruvi raisi - Bosh direktorining buyrug‘i bilan tasdiqlanganidan boshlab kuchga kiradi.

Agar ushbu Siyosatning biror-bir bandlari biron-bir sababga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan majburiy talablarga (imperativ me‘yorlarga) zid bo‘lsa, bunday bandlar ushbu Siyosatga tegishli o‘zgartirishlar kiritilgunga qadar o‘z kuchini yo‘qotadi, bunday hollarda Kompaniya O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi me‘yorlariga amal qiladi.

Mazkur siyosatning yangilanishini nazorat qilish “NKMK” AJ Transformatsiya boshqarmasining Barqaror rivojlanish va atrof-muhit (ESG) bo‘limiga yuklatiladi.